



TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

# TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL  
ISSN 2992-9016

№1/2026

**Muassis:**  
TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi**

**Ilmiy-uslubiy jurnal**

**Bosh muharrir:**

Sattarov Abdusamat  
Umurqulovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

**Mas'ul kotib:**

Turayev Baxtiyor Ergashevich

**Dizayner:**

Meyliqulov Shahboz  
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba  
nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

22.12. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnitirulasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

**Tahririyat manzili:**

Termiz sh., "Yulduz" MFY,  
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)

L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)

Maxmudov N.M. – i.f.d., prof.

Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.

Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD).

Absamatov A.E. – i.f.n., dots.

Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD), dots.

Ruzmetov B. – i.f.d. prof.

Xudoyqulov X.X. – i.f.d. (DSc), prof.

Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.

Xotamov O.Q. – i.f.d., prof.

Otamurodov Sh.N. – i.f.d. (DSc), dots.

Yarmatov Sh. Ch. - i.f.f.d. (PhD).

Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Shodiyev A.A. – i.f.f.d. (PhD).

Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD).

Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).

Absamatov A.E. - i.f.f.d. (PhD).

Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).

Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD).

# MUNDARIJA

## **SH.E.BOBOMURATOVA**

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....4

## **D.MUQUMOVA**

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....12

## **D.B.IBODULLAYEVA**

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....15

## **Z.M.AMIRKULOVA**

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqealik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....18

## **M.A.MEYLIQULOVA**

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....22

## **SH.A.DONAYEVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....25

## **G.E.TURAYEVA**

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish .....28

## **M.X.XAYDAROVA**

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....31

## **F.A.XAYITOVA**

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....35

## **D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV**

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....38

## **F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA**

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....42

## **U.A.TASHBAYEVA**

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....47

## **SH.T.TOSHOVA**

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....51

## **R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....54

## **G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA**

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....58

## **D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....65

## **M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....68

## **M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA**


Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....72

## **G.A.MAMARAJABOV**

Mustaqillik yillarida o'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....76

## **T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV**

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....80



Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedresi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna**  
E-mail: mahliyo\_xaydarova@tues.uz

## MAGISTRATURA TALABALARINING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda mustaqil ta'limning pedagogik mohiyati, uni rejalashtirish va tashkil etish metodlari, o'qituvchining metodik rahbarlik faoliyati hamda mustaqil ta'limning talabalarining ilmiy-tadqiqot kompetensiyalariga ta'siri tahlil qilinadi. Tajriba-sinov natijalari mustaqil ta'limning tizimli tashkil etilishi magistrantlarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi.

**Tayanch so'zlar:** pedagogika, magistratura, mustaqil ta'lim, kompetensiya, ta'lim jarayoni.

## ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ МАГИСТРАТУРЫ

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы эффективной организации самостоятельной учебной деятельности магистрантов. Проанализированы педагогическая сущность самостоятельного обучения, методы его планирования и организации, а также роль преподавателя в методическом сопровождении. Результаты опытно-экспериментальной работы показали, что системная организация самостоятельного обучения способствует развитию научно-исследовательских и профессионально-педагогических компетенций магистрантов.

Ключевые слова: педагогика, магистратура, самостоятельное обучение, компетенция, образовательный процесс.

## ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATIONAL ACTIVITIES OF MASTER'S STUDENTS

### ABSTRACT

This article examines the issues of effective organization of independent learning activities of master's students. The pedagogical essence of independent learning, methods of its planning and implementation, as well as the role of the teacher in methodological guidance are analyzed. The results of the experimental study demonstrate that a systematic approach to independent learning significantly enhances the research and professional pedagogical competencies of master's students.

Keywords: pedagogy, master's degree, independent learning, competence, educational process.

### KIRISH

Zamonaviy pedagogik ta'lim tizimida magistratura bosqichi oliy ta'limning eng muhim va mas'uliyatli bo'g'ini hisoblanadi. Ushbu bosqichda ta'lim olayotgan talabalar bakalavriat davrida egallagan umumiy bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirib, mustaqil ilmiy-tadqiqot olib borish, pedagogik muammolarni tahlil qilish va ularning ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqish darajasiga yetishi talab etiladi. Shu bois magistratura bosqichida ta'lim jarayonini tashkil etishda talabaning mustaqil ta'lim faoliyatiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida kompetensiyaviy

yondashuv ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Bu yondashuvga ko'ra, ta'lim natijasi faqat bilimlar majmui bilan emas, balki ularni amaliyotda qo'llay olish, mustaqil qaror qabul qilish, o'z faoliyatini rejalashtirish va baholash kompetensiyalari bilan belgilanadi. Mazkur kompetensiyalarni shakllantirishda mustaqil ta'lim muhim didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, pedagogika yo'nalishi magistrantlari uchun mustaqil ta'lim kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda mustaqil ta'lim tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Ayrim tadqiqotchilar uni talabaning o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni mustaqil

bajarish jarayoni sifatida izohlasa, boshqalar mustaqil ta'limni talabning shaxsiy ta'lim strategiyasini ishlab chiqishi va amalga oshirishi bilan bog'laydi. Har ikkala yondashuvda ham mustaqil ta'lim talabning faolligi, mas'uliyati va ichki motivatsiyasiga tayangan holda amalga oshirilishi ta'kidlanadi (Abdullaeva, 2020).

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi mustaqil ta'limni tashkil etish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Elektron ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim elementlari, raqamli kutubxonalar va ilmiy ma'lumotlar bazalari magistrantlarga mustaqil bilim olish jarayonini samarali tashkil etish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Biroq bu imkoniyatlardan oqilona foydalanish o'qituvchining metodik rahbarligi va puxta rejalashtirilgan mustaqil ta'lim tizimini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan strategik hujjatlarda magistratura bosqichida mustaqil ta'lim ulushini oshirish, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini faollashtirish va ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish pedagogika yo'nalishi magistrantlari mustaqil ta'lim faoliyatini ilmiy asoslangan holda tashkil etishni taqozo etadi.

Shu munosabat bilan, magistratura talabalari mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning samarali pedagogik mexanizmlarini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi: pedagogika yo'nalishi magistratura talabalari mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslarini yoritish, tajriba-sinov ishlari natijalari asosida uning ta'lim sifatiga ta'sirini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, globallashtirish va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida oliy ta'lim tizimi oldiga raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi, ilmiy-tadqiqot olib borishga qodir mutaxassislarni tayyorlash vazifasi qo'yilmoqda. Ayniqsa, magistratura bosqichi talabalardan nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishni, balki mustaqil ta'lim faoliyati orqali bilimlarni izlab topish, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etishni talab etadi. Shu bois magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish

masalasi bugungi kunda dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqot metodlari:** Tadqiqot pedagogika yo'nalishi magistratura talabalari mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish jarayonini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda sifat va miqdoriy tadqiqot metodlari uyg'unligidan foydalanildi.

Tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat:

- Nazariy tahlil va sintez – mustaqil ta'limga oid pedagogik, psixologik va metodik manbalarni o'rganish va umumlashtirish;
- So'rovnomma – magistratura talabalari orasida mustaqil ta'limga munosabat, motivatsiya va qiyinchiliklarni aniqlash;
- Pedagogik kuzatuv – mustaqil ta'lim jarayonida talabalarining faolligi, mas'uliyati va ijodkorligini baholash;
- Pedagogik tajriba-sinov – ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar asosida mustaqil ta'limni tashkil etish samaradorligini aniqlash;
- Statistik tahlil – olingan natijalarni foiz va solishtirma tahlil qilish.

Tajriba-sinov ishlari natijalari magistratura talabalari mustaqil ta'lim faoliyatini tizimli tashkil etish ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

Dastlabki va yakuniy diagnostika natijalari solishtirilganda quyidagi o'zgarishlar aniqlandi:

- mustaqil ishlash kompetensiyasi darajasi 27 % ga oshdi;
- ilmiy manbalar bilan ishlash ko'nikmalari 30 % ga yaxshilandi;
- pedagogik muammolarni tahlil qilish va yechim taklif etish qobiliyati 22 % ga oshdi.

Pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, mustaqil ta'lim topshiriqlari aniq mezonlar asosida baholanganda va o'qituvchi tomonidan metodik maslahatlar berilganda talabalarining o'quv jarayonidagi faolligi sezilarli darajada ortadi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Mazkur tadqiqot natijalari pedagogika yo'nalishi magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish ta'lim jarayonining sifat va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. [2] Olingan empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va metodik jihatdan asoslangan holda tashkil etilganda, magistrantlarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning ilmiy-tadqiqot va kasbiy-pedagogik kompetensiyalari ham sezilarli darajada rivojlanadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar Abdullaeva (2020), Karimov (2019) hamda Saidova (2021) tadqiqotlarida ilgari surilgan fikrlar bilan mos keladi.[4] Jumladan, ushbu olimlar mustaqil ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish talabalarining mustaqil fikrlashi, ilmiy tahlil ko'nikmalari va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar. Bizning tadqiqot natijalari ham mazkur yondashuvning samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.[4] Muhokama jarayonida alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlardan biri — o'qituvchining mustaqil ta'limdagi roli hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mustaqil ta'lim jarayonida o'qituvchi faqat nazoratchi emas, balki metodik yo'naltiruvchi, maslahatchi va motivator vazifasini bajarishi zarur. O'qituvchi tomonidan berilgan aniq ko'rsatmalar, baholash mezonlarining ochiqligi va muntazam teskari aloqa talabalarining mustaqil ta'limga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari mustaqil ta'lim topshiriqlarining mazmuni va shakliga ham bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Agar topshiriqlar kasbiy-pedagogik faoliyat bilan uzviy bog'langan, muammoli va ijodiy xarakterga ega bo'lsa, talabalarining faolligi va qiziqishi sezilarli darajada oshadi. Aksincha, formal va reproduktiv xarakterdagi topshiriqlar mustaqil ta'lim samaradorligini pasaytirishi mumkin. [1] Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalasi ham muhokama jarayonida muhim o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari raqamli ta'lim vositalari, elektron platformalar va onlayn resurslardan oqilona foydalanish mustaqil ta'limning samaradorligini oshirishini ko'rsatdi. Biroq, texnologiyalar faqat vosita ekanligini, ularning samarasi pedagogik maqsadga muvofiq qo'llanilgandagina namoyon bo'lishini alohida ta'kidlash lozim.[5]

Tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, ba'zi magistrantlarda mustaqil ta'limni rejalashtirish, vaqtni to'g'ri taqsimlash va o'z faoliyatini baholash ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatildi.

Bu holat magistratura bosqichida mustaqil ta'lim bo'yicha maxsus metodik mashg'ulotlar, treninglar va konsultatsiyalarni tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.[2]

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, magistratura talabalari mustaqil

ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu yondashuv pedagogik, metodik va tashkiliy omillarning o'zaro uyg'unligini ta'minlagan holda amalga oshirilgandagina kutilgan natijalarga erishish mumkin.

#### **Xulosa va takliflar.**

**Xulosa:** Magistratura bosqichi oliy ta'lim tizimining muhim va mas'uliyatli pog'onasi bo'lib, unda talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish yetuk mutaxassis va ilmiy kadrlarni tayyorlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida magistratura talabalarining mustaqil ta'limi ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim omil ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda metodik ta'minot, pedagogik texnologiyalar va raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanish zarurligi asoslab berildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mustaqil ta'limning tizimli yo'lga qo'yilmasligi magistrantlarda o'z-o'zini boshqarish, ilmiy izlanish olib borish va natijalarni tahlil qilish ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmasligiga olib keladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, o'qituvchi va talaba hamkorligiga asoslangan yondashuvni joriy etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, mustaqil ta'limni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish magistrantlarning kasbiy yetukligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Tavsiyalar:**

1. Magistratura ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim ulushini oshirish, uni fan dasturlarida aniq maqsad, vazifa va kutilayotgan natijalar asosida belgilash maqsadga muvofiqdir.

2. Mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda raqamli ta'lim platformalari (LMS, elektron kutubxonalar, onlayn ma'lumotlar bazalari) dan tizimli foydalanishni yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

3. Magistrantlarning mustaqil ta'lim motivatsiyasini oshirish maqsadida loyiha, muammoli vaziyat va ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan topshiriqlar ulushini ko'paytirish zarur.

4. O'qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish, ularni mustaqil ta'limni boshqarish va yo'naltirish bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslaridan o'tkazish tavsiya etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaeva N. Oliy ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Karimov I. Pedagogik texnologiyalar va ta'lim samaradorligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Saidova M. Magistratura bosqichida talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish // Pedagogika jurnali. – 2021. – №3. – B. 45–49.
4. Ziyomammedov B. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent, 2018.
5. UNESCO. Independent Learning in Higher Education. – Paris, 2020.
6. Boymurodov F. Mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik shartlari // Ta'lim va tarbiya. – 2022. – №2. – B. 33–38.
7. Xodjayev B. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent, 2019.
8. Xabibullayevna, XM (2025). Boshlang'ich ta'lim bo'yicha magistratura talabalarining ilmiy-pedagogik faoliyatini tashkil etishda samarali usullarni ommalashtirish.
9. Xaydarova, M. (2025). Magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirish amaliyotlari. Xalqaro sun'iy intellekt jurnali , 1 (2), 1241–1244.